



The nuances of prepositions in the Arabic language

Osiyo SALOKHIDDINOVA¹

Oriental university

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025

Received in revised form

10 April 2025

Accepted 2 May 2025

Available online

25 June 2025

Keywords:

preposition,
annexation,
payment,
exaltation,
emphasis.

ABSTRACT

This article is dedicated to the subtle nuances of Arabic prepositions (harfi jar). It examines the grammatical functions and meanings of these prepositions and their usage in the texts of the Quran and Hadith. Additionally, the article analyzes how these prepositions convey different meanings in various contexts and their significance in the translation process.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp242-246>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Arab tilida harfi jarlarning ma'nodagi o'ziga xos nozikliklari

Kalit so'zlar:

harfi jar,
ilsoq,
ta'diya,
iste'lo,
ta'kid.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola arab tilidagi harfi jarlarning ma'nodagi nozikliklariga bag'ishlangan. Unda harfi jarlarning grammatik vazifalari, ma'nolari va ularning Qur'on va hadis matnlaridagi qo'llanilishi o'rganiladi. Shuningdek, harfi jarlarning turli kontekstlarda qanday ma'nolarni ifodalashi va ularning tarjima jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Особенности значений предлогов в арабском языке

Ключевые слова:

предлог,
частица,
транзитивность,
превосходство,
усиление.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена тонкостям значений арабских предлогов (харф джарр). В ней исследуются грамматические функции, значения предлогов и их употребление в текстах Корана и хадисов. Также анализируется, какие значения выражают предлоги в различных контекстах и их роль в процессе перевода.

¹ Student, Oriental university.

ASOSIY QISM

Arab tili Somiy tillar guruhining janubiy tarmog'iga mansub til hisoblanadi. U Yaqin va O'rta Sharq hamda Afrika shimolidagi yigirmadan ortiq mamlakatlarning rasmiy davlat tili hisoblanadi. Arab tili dastlab (V–VII) asrlar johiliya davrida shoirlarning og'zaki ijodida namoyon bo'la boshlagan. (VIII–IX) asrlarda mumtoz arab tili grammatikasi ishlab chiqildi. Arab tili grammatikasi ikkita asosiy fanga bo'linadi: sarf va nahv. Nahv ilmining eng asosiy poydevorlaridan biri- harfi jarlar (حروف الجر) hisoblanadi. Harfi jarlar so'zlarga bog'lanib, ularni majrur (مجرور) holatga tushiradigan maxsus harflardir. Ular fe'l va ot so'z turkumlarini bir biriga bog'laydi va fe'lning ma'nosini yanada boyitadi. Jar harflari 20ta bo'ladi va ular quyidagilar: (من)min, (إلى)ila, (عن) a'n, (على)ala, (في)fi, (رُبَّ)rubba, (باء)ba, (الكاف)kaaf, (اللام)laam, (واو القسم)qasam vosi (تاء القسم) qasam tasi, (مُذْ)muz, (مُنْذْ)munzu, (هاتتا)hatta, (حالا)hola, (عدا)a'da, (حاشا)haasha, (كي)kay, (متي)mata, [1. الدروس النحوي. 2021-y. 62-b]

Jar harflarining hususiyatlari:

Zohir (ko'rinib turgan) ismlarga kiradigan mahsus harfi jarlar: (رُبَّ)rubba, (مُذْ)muz, (مُنْذْ)munzu, (هاتتا)hatta, (الكاف)kaaf, (واو القسم)qasam vosi, (تاء القسم) qasam tasi

Ism va harf o'rtasida ishtirok etadigan harfi jar harflari 5 tadir. Ular (الكاف)kaaf, (عَنْ)a'n, (على)a'laa, (مُذْ)muz, (مُنْذْ)munzu.

Fe'l va harf o'rtasida ishtirok etadigan harfi jarlar: (حالا)xola, (عدا)a'da, (حاشا)hasha.

Qolganlari esa faqat harf bo'lib ishlatiladi yuqorida o'tganlaridek emas. Ularni o'rni kelganda batafsil bayon qilamiz.

Harfi jarlar aynan bu nom bilan atalishining o'ziga yarasha sabablari bor, ular: Harfi jarlar o'zidan oldingi fe'lni va o'zidan keyingi ismni majrur qiladi, ya'ni harfi jardan keyin kelayotgan ismga kasra qo'yiladi. Yana ular حروف الخفض (xofd harflari- pastga tushiruvchi harflar) deb ham atalari. Bundan tashqari حروف الإضافة (izofa harflari) deb ham ataladi. Chunki u ozidan oldingi fe'lni o'zidan keyingi ismga izofa shaklida bog'laydi. Chunki ba'zi fe'llarni to'ldiruvchiga to'g'ridan to'g'ri borishga kuchi yetmaydi, balki shu harflar uni to'ldiruvchiga bog'laydi. Masalan:

- عَجِبْتُ مِنْ خَالِدٍ - Xoliddan hayron qoldim.
- مررتُ بِسَعِيدٍ - Sa'idning oldidan o'tdim.

Agar siz عَجِبْتُ خَالِدًا yoki مررتُ سَعِيدًا desangiz, noto'g'ri bo'ladi, chunki bu (عَجِبَ, مرَّ) fe'llari to'g'ridan to'g'ri to'ldiruvchiga ehtiyoji bor fe'llar emas, ularning ma'nosi to'liq chiqishi uchun jar harflari yordamida bog'lanish kerak.

Jar harflari kontekstga qarab turli o'rinda turlicha ma'no anglatadi.

• "ب" Ba harfining 13 ta ma'nosi bor: ilsoq, vosita, sabab, qasam, ta'kid va boshqalar.

- "في" - Fi harfi- joylashuv, majoziy ichki holat
- "من" - Min harfi-ibtido, ba'zi hollarda ta'qib (ketma-ketlik), tafsiriylik
- "عن" - A'n harfi- sababiylik, yuz o'girish
- "إلى" - Ila harfi- gacha, yo'nalish, cheklov

Yuqorida aytib o'tganimizdek, harfi jarlar 20 ta bo'lib, yuqorida ularning bir nechtasiga misol keltirdik. Quyida ularning batafsil to'xtalamiz.

"ب" - Ba harfi

Ba harfining ma'nolari: yuqorida aytib o'tganimizdek, Ba harfining 13 ta ma'nosi bor.

1-الإتصاق (ilsoq) -yopishish

Ilsoq- bu "ba"ning asliy ma'nosi. Bu ma'noni hamma holatda saqlab qoladi. Shuning uchun Sibavayh uni (باء الإلتصاق) yopishish basi deb atagan.

Ilsoqning turlari:

– Haqiqiy ilsoq- أمسكت بيدك - qo'lingni ushladim.

– Ma'juziy ilsoq- مررت بدارك - uying yonidan o'tdim.

2-الاستعانة- (istiona)- vosita, yordam orqali amalga oshirish.

Bu qismda "Ba" vosita ma'nosini bildirib, harakat qanday vosita yordamida amalga oshirilganini bildiradi.

كتبت بالقلم - qalam bilan (vositasida) yozdim

3-السببية و التعليل- (Sabab va ta'lil)- sabab va tushuntirish

Sabab "Ba"si fe'lga yoki undan hosil bo'lgan ish harakatning sababiga dalolat qiladi.

مات بالجوع- ochlikdan vafot etdi.

4-التعذية- (ta'diya) -lozimni mutaaddiyga aylantirish

ذهب الله بنورهم -Alloh ularning nurini yo'q qildi.

5-القسم- (qasam) Qasam ichida ishlatiladigan "Ba".

Bu "ba" harfi qasam keltirilayotgan zotga qo'shiladi.

أقسم بالله -Alloh nomi bilan qasam ichaman

بالله لأجتهدن -Allohning nomi bilan qasamki, albatta harakat qilaman.

6-العوض- (evaz)- O'rnini to'ldirish

"Ba" harfi biror narsa evaziga boshqa narsa olish, ayirboshlash.

خذ الدار بالفرس -Uyni ot evaziga ol

7-البدال- (badal) O'ringa-o'rin.

Badal ba harfi ikki narsadan birini tanlash, lekin muqobil yoki tovon sifatida emas, balki o'rnini almashtirish ma'nosini bildiradi.

ما يسرنى أنى شهدت بدرا بالعقبة - Meni badr jangida qatnashganim o'rniga aqabada bo'lganim xursand qiladi.

8-الظرفية- (zarfiyyat)- Zamon va joyni anglatadigan "Ba"

Zarfiyyat basi "ichida, paytida" degan ma'nolarni anglatadi.

لقد نصركم الله ببدر -Alloh sizlarga badrda g'alaba berdi.

9-المصاحبة- (musohaba) hamroh bo'lish

Musohaba basi biror narsaning boshqasi bilan birga bo'lishini, ya'ni "bilan", "Birga" degan ma'noni anglatadi.

بعتك الفرس بسرجه Senga otni egar bilan sotdim.

10-التبعية- Min harfi ma'nosidagi ba harfi

عينا يشرب بها عباد الله Bu jannatdagi buloqlardan Allohning bandalari ichadilar

11-عن- A'n harfi ma'nosidagi ba.

bu haqida bilimdon kishidan so'ra.

12-الاستعلاء- (iste'lo) Ustunlik va yuqorilik

من ان تأمنه بقنطار يؤده اليك -Kimga ko'p miqdorda xazina topshirsang, uni qaytarib beradi.

13-التأكيد- (ta'kid) Kuchaytirish

و كفى بالله شهيدا -Guvoh bo'lishga Alloh yetarli

Min harfi

Min harfining 8 ta ma'nosi bor:

1-الابتداء- (Ibtido)- Boshlanish

Bu harf bir joy yoki vaqt jihatidan boshlanish nuqtasini bildiradi. Aniqroq aytganda biror narsa qayerdan yoki qachondan boshlanganini bildiradi.

- Makon jihatdan ibtido-سبحان الذي أسري بعبد له ليل من المسجد الحرام الي الأقصى (O'z bandasini tun qorong'isida Masjidul Haromdan Masjidul Aqsoga sayr qildirgan zot pokdir).

- Zamon jihatdan ibtido-لمسجد أسس علي التقوي من أول يوم (Eng avvalgi kundanoq taqvo asosida qurilgan masjid...)

- Hodisa jihatidan ibtido-عجبت من اقدامك علي هذا العمل (Sening bu ishga jur'at qilganing menga ajab bo'ldi)

- Shaxs jihatidan ibtido-رايت من زهير ما أحبّ (Zuhardan menga yoqqan narsani ko'rdim).

2-التبعيض- (Tab'iyd)- Qismanlik

لن تتالوا البرّ حتي تنفقوا ممّا تحبون (Siz sevgan narsalardan bir qismini sadaqa qilmaguningizcha ezgulikka erisha olmaysiz)

3-البيان- (Bayon)- Izohlovchi: biror narsani nimaga mansubligini va nimadan iboratligini izohlash uchun ishlatiladi.

واجتنبوا الرجس من الأوثان (Butlardan bo'lgan ifloslikdan yiroq bo'ling)

4-التأكيد- (Ta'kid)- Kuchaytiruvchi

هل من خالق غير الله (Allohdan boshqa yaratuvchi bormi?)

5-البدل- (Badal)- O'ringa-o'rin, almashtirish.

أرضيتم بالحياة الدنيا من الآخرة (Siz oxirat o'rniga bu dunyo hayotidan rozi bo'ldingizmi?)

6-الظرفية- (Zarfiyat) Ichida. Joy yoki vaqt ichidagi mavjudlikni anglatadi.

ماذا خلقوا من الأرض (Ular yerda (ichida) nimani yaratishdi?)

7-السببية والتعليل- (Sabab va ta'lil) Sabab va maqsad.

مما خطيئاتهم أغرقوا (ular gunohlari sabab g'arq etildilar).

8-معني "عن" (An ma'nosidagi min harfi) Bu yerda "min" "an" ma'nosida, ya'ni biror narsa haqida yoki biror narsadan uzoqlik ma'nosini beradi.

فويل للقاسية قلوبهم من ذكر الله (Qalblari Allohning zikridan (uzoqlashib) qotganlarga halokat bo'lsin).

"إلى"-Ila harfi

Ila harfining 3 ta ma'nosi bor.

1-الانتهاء- (Intiho)- yakuni, nihoyasi.

ثم أتموا الصيام الي الليل (So'ng ro'zani kech kirguncha tuting)

2-المصهبة- (Musohaba) hamroh bo'lish.

قال من أنصاري الي الله (Alloh yo'lida kim men bilan yordamchidir?)

3-وتسمى المبينة- ("إلى" ma'nosidagi "ila")

أم لا سبيل الى الشباب, و ذكره

أشهى الي من الرحيق السلسل (Agar yoshlikka qaytish yo'li yo'q bo'lsa ham, uning eslanishining o'zi men uchun shirin sharobdan ham yoqimlidir).

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Arab tili grammatikasi juda ham chuqur va murakkab fan hisoblanadi. Shunday ekan bittagina harf hattoki 10 dan ortiq ma'noga ega. Har bir arab tili ixlosmandlari harfi jarlarning har bir ma'nosini o'rganar ekan, juda katta ilmga ega bo'ladi. Harfi jarlarni har bir ma'nosini bilgan talaba hattoki she'r yozishda ham mohir bo'ladi, sababi harfi jarlar juda nozik xususiyatlarga ega. Shunday ekan, arab tilini

chuqur o'rganmoqchi bo'lgan har bir talaba harfi jarlar ma'nosidagi o'ziga xos nozikliklarga alohida e'tibor qaratishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hanafi Nasif, Muhammad.D, Mustafa.T, Muhammad.S “Durus an-Nahviya) Qohira. 2021-y. 62-b.
2. Muhammad Muhiddin Abdulloh “Tuhfatu as-Sanniyya” Istanbul. 2021-y.73-b
3. Nematullo Ibrohimov “Arab tiligrammatikasi” Toshkent. 1997-y. 330-b
4. Ibodulloh Ahrorov “Taysirus sarf” Toshkent. 2017-y. 5-b.
5. Muqbid “Sharh al-Ajrumiya” 1435-y. 187-b.